ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(3)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 290 sahifa,
13-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)
Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Axborotlashgan jamiyatda xalq o'yinlari orqali shaxsni tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari 10
Abdullayeva Maryambibi Djumaniyazovna

Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish sharoitida talabaning axborot xavfsizligi kompetensiyasi: tushunchaning chegaralari va tarkibi 16
Mustafoyev Shahzod Mamanazar o'g'li

Navoiy viloyati ziyoratgohlari tarixi va ularning aholi hayotida tutgan o'rni 21
Nazarova Nozima Narzulloyevna

Fransuz tilidagi predloglar va o'zbek tilidagi kelishik qo'shimchalarining qiyosiy tahlili 26
Ro'zimova Yulduz Farhodovna

Umumta'lim maktab direktorlari emotsional intellektining boshqaruv faoliyatidagi ahamiyati 30
Rustamova Barno Abduxalilovna

Kikbokschilarda motivatsion omillar va musobaqa faoliyati samaradorligini takomillashtirish metodikasi: nazariy-tahliliy asoslash 34
Mamaraximov Azim Karakulovich

Pedagogik diagnostikaning umumiy metodlari va ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati 39
Daminova Shoxista Farxodovna

Dual ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim faoliyatiga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari 45
Oybekova Shukrona Oybek qizi

O'qish savodxonligini rivojlantirishda sun'iy intellekt asosidagi individual ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish 51
Abduvaliyeva Gulchexra Mamadjon qizi

Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosi asosida talabalarda kartografik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 56
Kazakbayeva Muhabbat Turabayevna

Brayl yozuvi ko'zi ojiz shaxslarning inklyuziv imkoniyatlarini ta'minlashning muhim vositasi sifatida 62
Panjiyev Shokir Zokir o'g'li

Дидактический потенциал подкастов в обучении русскому языку студентов 67
Ибрагимова Нилуфар Туйчиевна

Maxsus ta'lim tizimida differensiallashtirilgan va individuallashtirilgan o'qitishning metodik asoslari 72
Karimova Nilufar Boltaboyevna

Xorijiy til o'qituvchilarida kasbiy so'nish namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari 78
Matchanova Dilorom Karimovna

Raqamli ta'lim ekotizimi asosida talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishning pedagogik asoslari 83
Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

Yunon-rim kurashchilarining texnik-taktik tayyorgarligini individuallashtirish: pedagogik model va zamonaviy baholash metodikasi 87
Po'latjonov Shoxzod Avazjon o'g'li

Buyrak hujayrali saratonini erta aniqlashda ultratovush tekshiruvining diagnostik imkoniyatlari 92
Saydamatov Hayitboy Ulug'bek o'g'li

Проблемы и перспективы подгоготовки специалистов сферы искусств и культуры в ситстеме высшего образования 96
Кошелева Антонина Фёдоровна

Sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida ta'limning insonparvarlik paradigmasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari 99
Yaqubova Dinora Bahodirovna

Behbudiyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari va o'qitish metodlari 104
Islomova Lola Abdig'ani qizi

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari 110
Djabbarova Feruza Azamovna

The Role of Phonation Energy Efficiency in Sound Changes 114
Baxramova Shaxnoza Erkinovna

Mustaqillik yillarida ichki migratsiyaning shakllanish jarayonlari 119
Mo'minov Ziyovuddin Bakirjon o'g'li

Raqamli ta'lim davrida bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil ta'lim trayektoriyasini loyihalash: "pedagogik mahorat" fani misolida 123
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna

Современные подходы к управлению образовательным учреждением: теоретические основы и особенности реализации 128
Джуманиязова Дильбар Азатовна

Ko'zi ojiz o'quvchilarga funksiyalar grafiklarini o'rgatishda ko'p sezgili ta'lim yondashuvlaridan foydalanish 132
Abdullayev Umid Amrilloyevich

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari 139
G'oyibnazarov Rahmatilla

Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishda maxsus pedagog faoliyati 144
Hurriyat Yoqubova

Modelling the Semantic Field of Ma'naviyat in a Specialised Parallel Corpus: Theoretical and Methodological Foundations of Cross-Genre Discourse Analysis 149
Mukhlisa Chorieva Jumamurodovna

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy axborot-kutubxona xizmatlari samaradorligini oshirish metodikasi 154
G'oyibova Sayyora

Talabalarda psixologik rezilientlikni takomillashtirishning emotsional-kognitiv determinantlari 160
Hayitova Oydinniso Aliyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida samarali faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish 164
Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi

Fizika ta'limida muammoli masalalarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari 168
Ostonova Malika Uktam qizi

Texnika oliy ta'lim muassasalarida matematika fanlarini o'qitish metodikasini raqamli ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirish 173
Vahobov Mehroj Alisher o'g'li

Tarbiya, ta'lim, rivojlanish va shakllanish kategoriyalarining mazmun-mohiyati va o'zaro munosabati 178
Xodjayeva Munisa Utkur qizi

Birlamchi sog'liqni saqlash tizimida bo'lajak oilaviy shifokorlarning boshqaruvchanlik kompetensiyalari texnologiyasini shakllantirish 183
Abduvaxobova Nozima Raxmanovna

Uchburchak o'rta chizig'ining xossasini o'qitish va undan kelib chiqadigan dastlabki xulosalar 189
E. E. Jumayev, O'. X. Aytuvganov

Maktabgacha ta'limda musiqmashg'ulotlarini raqamli ta'lim resurslari asosida tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari 195
G'ulomova Muslimaxon Ahmadillo qizi

Teaching Medical Terminology Through Data-Driven Learning: A Corpus-Informed Model for English for Medical Purposes 199
Isomiddinova Diyora Qutbiddin qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Jismoniy tarbiya yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarlik tizimida gimnastika mashqlarini qo'llash metodikasining o'ziga xos xususiyatlari 209
Karimov Duysenbay Djienbaevitch

Filolog talabalarga ingliz va malay tillarini o'qitishda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari 213
Yuldashev Azim Abdurahmonovich

Qozoq, rus, o'zbek va ingliz tillarida sotsiolingvistik terminlarning tarjimasi: terminologik ekvivalentlikning qiyosiy tahlili 218
Yuldasheva Mahzuna Omonullayevna

Psixolog talabalarda empatiya, kommunikativ kompetentlik va refleksiv qobiliyatlarning konsultativ salohiyat rivojlanishidagi o'zaro bog'liqligi 224
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning individual kognitiv moslashuvchanligini kreativ didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish metodlari 230
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Mirzakarimova Anoraxon Ashurali qizi

Raqamli ta'lim muhitida 7–9-sinf o'quvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish 236
Paizbekov Timurlan Kurbanbayevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida darsga ijobiy munosabatni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari 240
Tursunbayeva Yulduz

Искусственный интеллект и цифровая трансформация в преподавании русского языка 246
Абдусаломова Мохичехра Эргашевна

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi nutq madaniyati va pedagogik muloqot odobi 250
M. S. Ibragimova

Yangi zamon tarbiyachisining pedagogik imidji va uning ahamiyati 256
Dosova Bakposhsha Odamboy qizi

Kognitiv faoliyatning nazariy-pedagogik mohiyati va ta'lim jarayonidagi ahamiyati 259
Xujobekov Bobur Xushboq o'g'li

Maktabgacha ta'limda innovatsion boshqaruvni joriy etishning texnologik modeli: dual ta'lim yondashuvi asosida 263
G'aniyeva Aziza Zayniddinovna

Shaxs addiktiv xulq-atvorining psixologik determinantlari va o'ziga xos xususiyatlari: nazariy-tahliliy yondashuv 268
Mamajonova Shohista Kamoldinovna

Filologik ta'lim samaradorligini oshirishda kognitiv va kommunikativ strategiyalar integratsiyasining didaktik imkoniyatlari 275
Pardayeva Umida Norbayevna

Nutq kamchiliklari mavjud o'quvchilarni inklyuziv sinfda differensial ta'lim texnologiyalari orqali rivojlantiruvchi metodik tizimini takomillashtirish 281
Shukurova Dilbar Shukrullo qizi

MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION BOSHQARUVNI JORIY ETISHNING TEXNOLOGIK MODELI: DUAL TA'LIM YONDASHUVI ASOSIDA

G'aniyeva Aziza Zayniddinovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Xalqaro hamkorlikni tashkil etish bo'limi boshlig'i, PhD
Toshkent, O'zbekiston
E-mail: azizaganieva@aifu.uz
Orcid ID: 0009-0001-2157-0323

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion boshqaruvni joriy etishning dual ta'lim yondashuviga asoslangan texnologik modeli nazariy jihatdan asoslandi. Tizimli, qiyosiy va modellashtirish usullari yordamida innovatsiyalarning tarqalishi, ta'limdagi yetakchilik va dual pedagogik ta'limga oid ilmiy qarashlar tahlil qilindi. Nazariy kontur (malaka oshirish muassasasi) va amaliy konturni (maktabgacha ta'lim tashkiloti) birlashtiruvchi, besh fazadan iborat "dual innovatsion sikl" modeli ishlab chiqildi. Modelda innovatsiyani pilot shaklida sinash, natijani ko'rsatkichlar asosida baholash va ijobiy yechimni butun muassasaga yoyish tartibi belgilandi. Natijalar rahbarlar faoliyatida va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirishda foydalanish uchun taklif etildi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, innovatsion boshqaruv, dual ta'lim, texnologik model, innovatsion sikl, pilot-loyiha, nastavniklik, dalilga asoslangan boshqaruv, malaka oshirish.

Abstract: The article theoretically substantiates a technological model for implementing innovative management in preschool educational organizations based on the dual education approach. Using systematic, comparative, and modeling methods, scientific perspectives on the diffusion of innovations, educational leadership, and dual pedagogical education were analyzed. A five-phase model of the "dual innovation cycle" was developed, integrating the theoretical component (professional development institution) and the practical component (preschool educational organization). The model establishes procedures for piloting innovations, evaluating results based on indicators, and disseminating successful solutions throughout the institution. The results are proposed for use in the activities of educational leaders and in improving professional development programs.

Key words: preschool education, innovative management, dual education, technological model, innovation cycle, pilot project, mentoring, evidence-based management, professional development.

Аннотация: В статье теоретически обоснована технологическая модель внедрения инновационного управления в дошкольных образовательных организациях, основанная на подходе дуального образования. С помощью системного, сравнительного методов и метода моделирования проанализированы научные взгляды на распространение инноваций, лидерство в образовании и дуальное педагогическое образование. Разработана модель "дуального инновационного цикла", состоящая из пяти фаз и объединяющая теоретический контур (учреждение повышения квалификации) и практический контур (дошкольная образовательная организация). В модели определён порядок апробации инновации в пилотном формате, оценки результатов на основе показателей и распространения положительного решения на всё учреждение. Результаты предложены для использования в деятельности руководителей и совершенствовании программ повышения квалификации.

Ключевые слова: дошкольное образование, инновационное управление, дуальное образование, технологическая модель, инновационный цикл, пилотный проект, наставничество, управление на основе доказательств, повышение квалификации.

KIRISH

Ta'lim tizimlarining bugungi rivoji bilim berish bilan uni amaliyotda sinash o'rtasidagi masofani qisqartirishga qaratilmoqda. Nazariya va ish joyidagi amaliyotni uyg'unlashtiruvchi dual ta'lim tajribasi, ayniqsa Germaniya kasb-hunar ta'limi tizimi, xalqaro miqyosda keng o'rganilmoqda. T.Daysinger bu tizimning "yaxshi amaliyot" sifatidagi obro'sini uning murakkab institutsional tuzilmasi bilan birga baholash kerakligini, ya'ni uni boshqa sharoitga mexanik ko'chirib bo'lmasligini ta'kidlaydi [1].

Maktabgacha ta'lim sohasida esa xalqaro hamjamiyatning e'tibori sifat va kadrlar salohiyatiga ko'chdi: 2022 yil noyabrida Toshkentda o'tkazilgan Butunjahon konferensiyasida qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasi har bir bola uchun kamida bir yillik bepul maktabgacha ta'limni ta'minlash, soha xodimlarining maqomini oshirish va ta'lim xarajatlarining kamida 10 foizini maktabgacha ta'limga yo'naltirish majburiyatlarini belgiladi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi islohotlar huquqiy asosga ega. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun [3] soha sub'ektlarining huquq va majburiyatlarini belgilab bergan bo'lsa, Prezidentning 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-son Farmoni maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirishni maqsad qildi [4].

Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (PQ-4312) boshqaruvni modernizatsiya qilish, davlat-xususiy sherikchiligini kengaytirish va islohotlar monitoringini yo'lga qo'yishni nazarda tutadi [5]. 2025 yil 28 apreldagi PF-73-son Farmonda esa pedagog kadrlar tayyorlashda dual ta'lim shaklidan keng foydalanish vazifasi qo'yildi [6].

Shu bilan birga, amaliyotda bir qator ziddiyatlar saqlanib qolmoqda. Malaka oshirish kurslarida olingan nazariy bilim maktabgacha ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda MTT) rahbarining kundalik boshqaruv faoliyatiga to'liq ko'chmaydi, innovatsiyalar ko'pincha alohida tadbir sifatida joriy etilib, tizimli davom ettirilmaydi, ota-onalar esa boshqaruv jarayonidan chetda qoladi. Dual ta'lim g'oyasining maktabgacha ta'lim boshqaruviga tatbiqi, xususan innovatsion boshqaruvni bosqichma-bosqich joriy etishning texnologik modeli ilmiy adabiyotlarda hali yetarlicha yoritilmagan.

Ta'lim muassasasidagi innovatsiya boshqaruv masalasi sifatida uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinadi. E.Rodjersning innovatsiyalar tarqalishi nazariyasiga ko'ra, yangilik jamoa tomonidan qabul qilinishi uning nisbiy afzalligi, mavjud qadriyatlarga mosligi, murakkablik darajasi, sinab ko'rish imkoniyati va natijasi ko'rinib turishiga bog'liq [7]. Bu xulosa MTT uchun muhim: tarbiyachilar yangilikni buyruq orqali emas, balki uning foydasini o'z amaliyotida ko'rgandagina barqaror qo'llaydi.

K.Leytvud, A.Xarris va D.Xopkins muvaffaqiyatli ta'lim rahbarlari yo'nalish belgilash, odamlarni rivojlantirish, tashkilotni qayta tashkil etish va ta'lim jarayonini takomillashtirish kabi umumiy amaliyotlar to'plamiga tayanishini ko'rsatadi [8]. Demak, innovatsion boshqaruv, eng avvalo, rahbarning jamoa salohiyatini rivojlantirish qobiliyati bilan belgilanadi.

Dual ta'lim tushunchasi dastlab kasb-hunar ta'limida shakllangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda pedagog kadrlar tayyorlashga ham tatbiq etilmoqda. T.A.Bezusova pedagogik ta'limni dual shaklga o'tkazish turli darajadagi ta'lim tashkilotlarining tarmoqli sherikchiligiga tayanishini, bunda amaliyotga yo'nalganlik, komplekslilik, integratsiya va sherikchilik tamoyillari yetakchi o'rin tutishini asoslagan; uning tavsiflagan tajribasida amaliy mashg'ulotlarning bir qismi bog'cha va maktablarda nastavnik rahbarligida o'tkaziladi [9].

A.Ganieva esa maktabgacha ta'limda dual yondashuv an'anaviy "ish beruvchi - ta'lim muassasasi" juftligidan farq qilishini, u MTT, oila, jamoatchilik va xususiy sektor o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik shaklida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi va innovatsion boshqaruvning tizimlilik, integrativlik, ijtimoiy sherikchilik, innovatsion ochiqlik hamda sifatga yo'nalganlik tamoyillarini ajratadi [10].

O'zbek olimlarining so'nggi ishlarida rahbarning o'ziga xos o'rni alohida qayd etiladi. Sh.B.Kasimova MTT direktorining boshqaruv innovatsion loyihasini boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ta'lim sifati va muassasaning raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqadi [11].

B.Ishanova ta'lim tizimini boshqarishda rahbarning tashabbuskorligi, ochiq kadrlar siyosati, uzoq muddatli strategik rejalashtirish va raqamli boshqaruv vositalarining ahamiyatini ko'rsatadi [12]. Biroq bu ishlarda innovatsion boshqaruvni joriy etishning bosqichlari va ularni ta'minlovchi vositalar yagona texnologik tizimga keltirilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Modellashtirishning metodologik asosi sifatida V.A.Shtoff yondashuvi olindi: unga ko'ra, model o'rganilayotgan ob'ekt bilan tuzilmaviy o'xshashlikka ega bo'lishi, ya'ni ob'ektning asosiy elementlari va ular orasidagi aloqalarni aks ettirishi lozim [13]. V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani oldindan loyihalangan va boshqa sharoitda takrorlanadigan pedagogik jarayon sifatida ta'riflaydi [14]. Ushbu ikki qarashni birlashtirib, maqolada "innovatsion boshqaruvni joriy etishning texnologik modeli" deganda MTTda innovatsion boshqaruvning maqsadi, tamoyillari, sub'ektlari, joriy etish bosqichlari, vositalari va kutilayotgan natijalarini o'zaro bog'liq bloklar shaklida ifodalovchi hamda boshqa MTTlarda qayta qo'llash mumkin bo'lgan tuzilma tushuniladi.

Model mazmunini belgilashda maktabgacha pedagogikaning klassik yondashuvlari ham hisobga olindi. L.S.Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi g'oyasi o'rganuvchining tajribali hamkasb ko'magida mustaqil bajara olmaydigan vazifani o'zlashtirishini tushuntiradi [15]. Bu g'oya bola rivojlanishi bilan birga, nastavnik ko'magida

o‘qiyotgan rahbar uchun ham ahamiyatli. Redjio-Emiliya tajribasida esa oila bolani tarbiyalashda pedagoglarning teng huquqli hamkori sifatida qaraladi [16]. Ikkala yondashuv ham dual konturdagi hamkorlik va nastavniklikning pedagogik asosini mustahkamlaydi.


Mavjud yondashuvlar tahlili innovatsion boshqaruvni chiziqli harakatlar ketma-ketligi sifatida emas, balki o‘zini o‘zi takomillashtiruvchi sikl sifatida loyihalash zarurligini ko‘rsatdi. Shu asosda maqolada “dual innovatsion sikl” modeli taklif etiladi (1-rasm). Modelning markazida MTT rahbari innovatsion yetakchi sifatida turadi, uning atrofida esa bir-biriga ulangan besh faza joylashgan: muammo va innovatsiyani tanlash, nazariy modul, o‘zgarish loyihasini tuzish, MTTdagi pilot-loyiha, dalilli baholash va yoyish.

Modelning dual tabiati ikkita kontur orqali ifodalanadi. Nazariy kontur malaka oshirish muassasasi tomonidan ta’minlanadi: rahbar modullar, keys-tahlil va onlayn kurs orqali innovatsiyaning ilmiy asosini o‘rganadi va o‘z muassasasi uchun o‘zgarish loyihasini tuzadi. Amaliy kontur MTTning o‘zida ishlaydi: loyiha real boshqaruv vaziyatlarida sinaladi, nastavnik rahbarga maslahat beradi, pedagogik jamoa va oila natijalarni baholashda qatnashadi. T.A.Bezusova dual pedagogik ta’limda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni almashlab tashkil etishni taklif etgan bo‘lsa [9], ushbu modelda almashinuv bir fazadan ikkinchisiga o‘tish orqali yuz beradi.

Modelning kirish qismida innovatsion ehtiyoj aniqlanadi. Uning manbalari normativ talablar, MTTning o‘zini o‘zi baholashi hamda ota-onalar va pedagoglar so‘rovidir. Model to‘rtta qo‘llab-quvvatlovchi shartga tayanadi: normativ asos, nastavniklik tizimi, raqamli platforma va ko‘rsatkichlar paneli, rag‘batlantirish. Natija uch darajada kutiladi: shaxs darajasida rahbarning innovatsion boshqaruv kompetentligi, tashkilot darajasida jamoaning innovatsion madaniyati, ijtimoiy darajada bola rivoji va oilaning qoniqishi.

TAHLIL VANATIJALAR

Model beshta tamoyilga tayanadi. Amaliyotga yo‘nalganlik tamoyiliga ko‘ra har bir nazariy modul MTTdagi aniq muammoni hal etishga xizmat qiladi. Dalilga asoslanganlik tamoyili innovatsiya qabul qilinishi yoki rad etilishi haqidagi qarorni oldindan belgilangan ko‘rsatkichlarga bog‘laydi. Iterativlik tamoyili siklning har bir aylanishi natijasini keyingi sikl uchun kirish ma’lumotiga aylantiradi. Sherikchilik tamoyili malaka oshirish muassasasi, MTT va oilaning mas’uliyatini taqsimlaydi. Masshtablanuvchanlik tamoyili esa pilot guruhda natija bergan yechimni butun muassasaga va boshqa MTTlarga yoyish shartlarini belgilaydi.



1-rasm: **Maktabgacha ta’limda innovatsion boshqaruvning dual innovatsion sikl modeli**

Fazalarning mazmuni, yetakchi konturi, asosiy vositalari va natija ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: **Dual innovatsion sikl fazalarining tavsifi**

Faza	Etakchi kontur va asosiy vositalar	Natija ko‘rsatkichi
1. Muammo va innovatsiyani tanlash	MTT: o‘zini o‘zi baholash, ota-onalar va pedagoglar so‘rovi	Ustuvor muammo va unga mos innovatsiya tanlangan
2. Nazariy modul	Malaka oshirish muassasasi: modul, keys-tahlil, onlayn kurs	Rahbar innovatsiyaning ilmiy asosi va xavflarini tushuntirib bera oladi
3. O‘zgarish loyihasini tuzish	Malaka oshirish muassasasi va nastavnik: loyiha shabloni, maslahat	Maqsad, muddat, mas’ullar va ko‘rsatkichlari aniq loyiha
4. Pilot-loyiha MTTda	MTT: bitta yoki ikkita guruhda sinov, nastavnik kuzatuvi	Sinov yakunlangan, jarayon hujjatlashtirilgan
5. Dalilli baholash va yoyish	MTT va oila: ko‘rsatkichlar paneli, jamoa muhokamasi	Echimni saqlash, tuzatish yoki rad etish haqida asosli qaror

Birinchi fazada rahbar bir vaqtning o‘zida ko‘plab yangiliklarni emas, muassasa uchun eng dolzarb bitta muammoni tanlaydi. Bu ortiqcha yuklamaning oldini oladi va jamoaning e’tiborini bir maqsadga qaratadi. Ikkinchi va uchinchi fazalarda nazariy kontur etakchilik qiladi: rahbar innovatsiyani o‘rganibgina qolmay, uni o‘z muassasasi sharoitiga moslashtirilgan loyihaga aylantiradi. B.Ishanova ta’kidlagan strategik rejalashtirish va tashabbuskorlik sifatlari [12] aynan shu fazalarda shakllanadi.

To‘rtinchi faza modelning eng muhim o‘ziga xosligidir. Innovatsiya dastlab butun muassasada emas, bitta yoki ikkita guruhda sinab ko‘riladi. E.Rodjers yangilikni kichik hajmda sinab ko‘rish va natijasini ko‘rinadigan qilish uni qabul qilishni tezlashtirishini ta’kidlaydi [7]. Pilot shaklidagi sinov xato qilish xavfini kamaytiradi va tarbiyachilarda innovatsiyaga nisbatan ishonch uyg‘otadi. Nastavnikning ishtiroki esa L.S.Vыgotskiy tasvirlagan tajribali hamkor ko‘magidagi o‘rganish g‘oyasiga mos keladi [15].

Beshinchi fazada qaror taassurotga emas, dalilga tayanadi. Ko‘rsatkichlar panelida bola rivojlanishi bo‘yicha kuzatuv ma’lumotlari, ota-onalar qoniqishi, pedagoglarning innovatsiyani qo‘llash darajasi va vaqt hamda resurs xarajatlari aks etadi. Natija ijobiy bo‘lsa, echim boshqa guruhlarga yoyiladi va muassasa hujjatlariga kiritiladi. Natija etarli bo‘lmasa, loyiha tuzatiladi va цikl qayta boshlanadi. Ota-onalarning bu fazadagi ishtiroki Redjio-Emiliya tajribasidagi oilani ta’limning teng hamkori deb bilish g‘oyasiga hamohangdir [16].

Taklif etilgan model mavjud yondashuvlardan uchta jihat bilan farq qiladi.

Birinchidan, u dual ta’limni faqat kadrlar tayyorlash shakli sifatida emas [9], balki rahbarning o‘z muassasasida innovatsiyani joriy etish mexanizmi sifatida talqin qiladi.

Ikkinchidan, A.Ganieva ta’kidlagan ko‘p tomonlama hamkorlik [10] modelda aniq fazalarga bog‘lanadi: oila muammoni aniqlash va natijani baholashda qatnashadi.

Uchinchidan, Sh.B.Kasimova ko‘rib chiqqan direktorning innovatsion loyihasi [11] modelda bir martalik hujjat emas, takrorlanuvchi цiklning bir fazasi sifatida qaraladi.

K.Leytvud va hammualliflari ajratgan yo‘nalish belgilash va odamlarni rivojlantirish amaliyotlari [8] esa birinchi va ikkinchi fazalarda aniq mazmun kasb etadi. Modelga qarshi asosli e’tiroz ham mavjud: sikl bo‘yicha ishlash rahbardan vaqt talab qiladi, kam resursli va internet sifati past hududlarda esa raqamli ko‘rsatkichlar panelini yuritish qiyin. Bu e’tirozni inobatga olib, modelda siklning davomiyligi muassasa imkoniyatiga qarab belgilanadi, ko‘rsatkichlar paneli esa oddiy qog‘oz shaklida ham yuritilishi mumkin. Shunga qaramay, model samaradorligi hozircha nazariy jihatdan asoslangan va uni tajriba-sinovda tekshirish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil MTTda innovatsion boshqaruvni bir martalik tadbirlar orqali emas, balki nazariy va amaliy konturlar uyg‘unlashgan takrorlanuvchi цikl sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan dual innovatsion цikl modeli muammoni tanlashdan boshlab dalilli baholashgacha bo‘lgan besh fazani, malaka oshirish muassasasi va MTT o‘rtasidagi mas’uliyat taqsimotini hamda natijani uch darajada baholashni o‘z ichiga oladi. Model maktabgacha ta’lim boshqaruvi nazariyasini innovatsiyalarni pilot shaklida sinash va dalilga asoslangan qaror qabul qilish g‘oyalari bilan boyitadi. Natijalar asosida quyidagilar taklif etiladi:

1. MTT rahbarlari malaka oshirishini kurs yakunidagi bitiruv ishi o‘rniga o‘z muassasasida bajariladigan o‘zgarish loyihasi bilan yakunlash va uni nastavnik kuzatuvida pilot shaklida sinash taklif etiladi.

2. Har bir MTTda innovatsiya natijalarini kuzatish uchun ota-onalar qoniqishi, pedagoglarning innovatsiyani qo‘llash darajasi va bola rivojlanishi kuzatuvlarini birlashtiruvchi oddiy ko‘rsatkichlar panelini joriy etish maqsadga muvofiq.
3. Malaka oshirish muassasalari huzurida tajribali MTT rahbarlaridan iborat nastavniklar tarmog‘ini shakllantirish va ularning faoliyatini rag‘batlantirish taklif etiladi.
4. Modelni turli hududlardagi MTTlarda, jumladan, kam resursli muassasalarda tajriba-sinovdan o‘tkazish va ц iklning maqbul davomiyligini aniqlash maqsadga muvofiq.

Maqolaning cheklovlari shundaki, model nazariy tahlil asosida tuzilgan va empirik sinovdan o‘tkazilmagan. Kelgusida uni miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida baholash va MTT turlari bo‘yicha moslashtirish izlanishning asosiy yo‘nalishlari bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Deissinger T. The German dual vocational education and training system as ‘good practice’? // Local Economy. - 2015. - Vol. 30, № 5. - P. 557-567. - DOI: 10.1177/0269094215589311.
2. UNESCO. Tashkent Declaration and Commitments to Action for Transforming Early Childhood Care and Education: World Conference on Early Childhood Care and Education, Tashkent, 14-16 November 2022. - Paris: UNESCO, 2022. - URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000385190 (murojaat sanasi: 07.10.2026).
3. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. - URL: https://lex.uz/docs/4646908 (murojaat sanasi: 07.10.2026).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-son Farmoni. - URL: https://lex.uz/docs/3362886 (murojaat sanasi: 07.10.2026).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish концепц iyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori. - URL: https://lex.uz/docs/4327235 (murojaat sanasi: 07.10.2026).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 28 apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmoni. - URL: https://lex.uz/docs/7499721 (murojaat sanasi: 07.10.2026).
7. Rogers E.M. Diffusion of Innovations. - 5th ed. - New York: Free Press, 2003.
8. Leithwood K., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership revisited // School Leadership & Management. - 2020. - Vol. 40, № 1. - P. 5-22. - DOI: 10.1080/13632434.2019.1596077.
9. Bezusova T.A. Model perexoda k dualnomu pedagogicheskomu obrazovaniyu // Nauchnыy rezultat. Pedagogika i psixologiya obrazovaniya. - 2021. - T. 7, № 3. - S. 14-24. - DOI: 10.18413/2313-8971-2021-7-3-0-2.
10. Ganiyeva A. Conceptual foundations of innovative management of preschool educational organizations under dual education conditions and principles of social partnership // Jamiyat va innovatsiyalar - Society and Innovations. - 2026. - Vol. 7, № 3/S. - P. 292-301. - DOI: 10.47689/2181-1415-vol7-iss3/S-pp292-301.
11. Kasimova Sh.B. Management innovation project of the director of a preschool educational organization // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. - 2026. - P. 174-177. [jild va son raqami TEK-ShIRILSIN]
12. Ishanova B. Ta’lim tizimini boshqarishda zamonaviy yondashuvlar va raqamli boshqaruvning ahamiyati // Jamiyat va innovatsiyalar - Society and Innovations. - 2024. - Vol. 5, № 3. - P. 52-55. - DOI: 10.47689/2181-1415-vol5-iss3-pp52-55.
13. Shtoff V.A. Modelirovanie i filosofiya. - M.; L.: Nauka, 1966. - 301 s.
14. Bespalko V.P. Slagaemыe pedagogicheskoy texnologii. - M.: Pedagogika, 1989. - 192 s.
15. Vыgotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. - M.: Pedagogika-Press, 1996.
16. Edwards C., Gandini L., Forman G. (eds.) The Hundred Languages of Children: The Reggio Emilia Experience in Transformation. - 3rd ed. - Santa Barbara: Praeger, 2012.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Mas’ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(3)

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.